



## 4-SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING TUZILISHI VA MAZMUNI

*Sobirova Nozimaxon Zohidjon qizi - Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ( boshlang'ich ta'lim ) 2-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 4-sinf o'qish savodxonligi darsligining tuzilishi, mazmuni va metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Darslikdagi mavzularning o'quvchilarning o'qib tushunish, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, darslikning zamonaviy ta'lim talablari asosida shakllantirilganligi hamda uning tarbiyaviy va ta'limiy imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** 4-sinf, o'qish savodxonligi, darslik, tuzilish, mazmun, o'qib tushunish, matn tahlili, kompetensiya, ta'lim jarayoni, metodik yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье анализируются структура, содержание и методические особенности учебника по читательской грамотности для 4 класса. Освещается значение тем и заданий учебника в развитии навыков осознанного чтения, анализа текста и самостоятельного мышления учащихся. Также рассматриваются образовательные и воспитательные возможности учебника, разработанного в соответствии с современными требованиями образования.

**Ключевые слова:** 4 класс, читательская грамотность, учебник, структура, содержание, понимание прочитанного, анализ текста, компетенция, образовательный процесс, методический подход.

**Abstract:** This article analyzes the structure, content, and methodological features of the 4th-grade Reading Literacy textbook. It highlights the role of the textbook's topics and activities in developing students' reading comprehension, text analysis, and independent thinking skills. The article also examines the educational



and developmental potential of the textbook, which has been designed in accordance with modern educational requirements.

**Keywords:** Grade 4, reading literacy, textbook, structure, content, reading comprehension, text analysis, competence, educational process, methodological approach.

### **Kirish.**

Insoniyatning butun hayoti davomida yosh avlodga bilimlarni darslik kabi ketma-ket va izchil yetkazuvchi qulay vosita yaratilmagan. Turli xil an'anaviy o'quv vositalari ichida darslik o'zining amaliy va nazariy ahamiyatiga ko'ra alohida o'rin egallaydi. Chunki u eng samarali hamda eng ko'p tarqalgan o'rganish vositasi bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muayyan bosqichi zamonaviy o'quv va elektron darsliklar yaratishdan tarkib topgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining talablariga muvofiq ishlab chiqilgan „Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi“ da o'quv adabiyotlarini yaratish uchun qator talablar belgilab berilgan. Ularni yaratishda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim) o'rtasidagi uzviylik va uzliksizlikni ta'minlashga, fanlarda mavzular izchilligiga va ularning oddiydan murakkabga, xususiyan umumiylikka o'tib borishiga hamda mavzularning takrorlanmasligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, yaratiladigan zamonaviy o'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.



Darslik davlat ta'lim standartida belgilangan asosiy o'quv materialini qamrab olgan holda, bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topishga, amaliy faoliyatda qo'llashga o'rgatish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

### **Asosiy qism.**

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik markaz tomonidan tavsiya etilgan amalda qo'llanilayotgan 4-sinf "O'qish savodxonligi" darsligi 4 qismdan iborat. Darslik 2023- yilida Toshkent "Novda edutainment" xususiy kompaniyasi tomonidan nashr qilingan. Darslikning 1-qismi M.E.Toirova tomonidan, 2-qismi U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirovalar, 3- va 4-qismlari esa U.B.Aydarova, N.K.Azizovalar hammuallifligida yaratilgan.

Taqrizchilar sifatida Sh.Y.Muslimova – Toshkent shahri 328- umumiy o'rta ta'lim maktabining oily toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi va M.M.Umarova – Toshkent shahri 222- umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchilari qayd etilgan.

4-sinf o'qish savodxonligi darsligining maqsadi:

- o'quvchilarda mustaqil, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish,
- matnni tahlil qilish, mazmuni tushunish va xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirish,
- tanqidiy va mantiqiy fikrlashni o'rgatish,
- turli turdagi matnlar bilan ishlashga tayyorlashdan iborat.

Ushbu darslikning 3-sahifasida 10 ta shartli belgi berilgan bo'lib, ular quyidagilar:



Darslikning 1-qismi 82 sahifadan iborat bo'lib, unda 15 ta mavzu berilgan<sup>1</sup>.

№	Mavzu nomi	Muallifi	Janri
	Yagonadir Vatanning sening	Xurshid Davron	Matn
	Buyuk mehring	Nazarmat Egamnazarov	She'r
	Sayroqi qushcha	Zamira Ibrohimova	Hikoya
	Vatan yoshlari	Azim Suyun	She'r
	Marvarid	Meri Joslin	Hikoya
	Toshbag'ir.	Jabbor Razzoqov	Hikoya
	Qarg'a va paxta	Nasiba Erxonova	Ertak
	Ona tilim	Miraziz A'zam	She'r
	Tabiat darsi. Ona tili darsi	Halima ahmedova	She'r

<sup>1</sup> Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 1-qism: 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.82b.



	Baxtimizning timsoli	Temur Ubaydullo	She'r
	Qanot qoqqan orzular	Hilola Hamdova	Hikoya
	Yetti xazinaning biri	Hilola Hamdova	Hikoya
	Hunarli mingni yengar	Obiddin Mahmudov	Matn
	Kitob va boylik	Hidoyat Olimova	Hikoya
	Fazoga sayr	Selli Rayd	Matn

Darslikning 2-qismi 80 sahifadan iborat bo'lib, unda "Do'st do'stga oyna", "Davlatimiz ramzlari - Vatanimiz timsoli", "Rosa maza qish, qorlari – kumush" nomli 3ta bo'lim berilgan. Bo'limlar jami 16ta mavzuni o'z ichiga olgan bo'lib, shundan 3tasi bo'lim yuzasidan takrorlash darslaridir<sup>2</sup>.

№	Mavzu nomi	Muallifi	Janri
	Kichik ustoz	Ashurali Jo'rayev	Hikoya
	Do'st do'stga oyna	Quddus Muhammadiy	She'r
	Abu ALi ibn Sino		Rivoyat
	Do'stlikda gap ko'p ekan		O'zbek xalq ertagi
	Tovuq bilan Tulk	Ezop	Masal
	Bo'lim yuzasidan takrorlash		
	Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni	Mansur Aslonov	She'r
	Vatan - jon fidoligidir	Boltaboy Eshmurotov	Matn
	O'zbekiston madhiyasi	Abdulla Oripov	She'r

<sup>2</sup> Aydarova U. B., Azizova N.K., Toirova M.E.. O'qish savodxonligi. 2-qism: 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. 80b.

<sup>3</sup> Aydarova U.B., Azizova N.K., O'qish savodxonligi 3-qism: 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. 82b.



	Bayroqlar nimani anglatadi?		Matn
	Bo‘lim yuzasidan takrorlash		
	Chang'i uchaman	Qambar Ota (0 ‘tayeV)	She’r
	Bir hovli qush 1 –qism	Muhabbat Hamidova	Hikoya
	Bir hovli qush 2 -q ism	Muhabbat Hamidova	Hikoya
	Qishki ta’til	Qambar Ota (0 ‘tayeV)	She’r
	Bo'lim yuzasidan takrorlash		

Darslikning 3-qismi 82 sahifadan iborat bo‘lib, unda “Men va tabiat”, “Salomatlik – tuman boylik”, “Oila – tarbiya o‘chog‘i” nomli 3ta bo‘lim berilgan. Bo‘limlar jami 21 ta mavzuni o‘z ichiga olgan<sup>3</sup>.

№	Mavzu nomi	Muallifi	Janri
	Qanday go'zal bu olam	Rauf Tolib	She’r
	Arining qasosi	Muhabbat Hamidova	Hikoya
	Arining qasosi	Muhabbat Hamidova	Hikoya
	Do'stlar sayohati.	Bolalar ensiklopediyasi ertaklarda” kitobidan	Hikoya
	Chaqmoq.	Otash Xolmirzayev	She’r
	Mimoza.	Quddus Muhammadiy	She’r
	Chumoli va bug'doy donasi.		Ertak
	Qushlar qanday inlarda yashaydi?.	“Bolalar ensiklopediyasi ertaklarda” kitobidan	Ertak



	Suvda xotira bor.	“Bolalar adabiyoti” jurnalidan	Matn
	Tutun zahri.		Matn
	Mikrob, virus va Salomat qiz.	Kavsar Turdiyeva	She’r
	Mikrob, virus va Salomat qiz.	Kavsar Turdiyeva	She’r
	Tan sihatlik - tuman boylik.		Matn
	Chuchvarachi chumchuq xola.	Muazzam Ibrohimova	She’r
	Qari bilganni pari bilmas.		0 ‘zbek xalq ertagi
	Nok.	Latif Mahmudov	Hikoya
	Temir qoziq.	0 ‘tkir Hoshimov	Hikoya
	Ukam.	Hamza Imomberdiyev	She’r
	Tarbiya.	Habibulla Qodiriy	Hikoya
	Ona.	Obid Rasul	She’r
	Ona kaklik.	Azim Suyun	Hikoya

Darslikning 4-qismi 82 sahifadan iborat bo‘lib, unda “Manguga muhrlanganlar”, “Qiziqishlardan kasblargacha”, “Mo‘jizalar olami” nomli 3ta bo‘lim berilgan. Bo‘limlar jami 19 ta mavzuni o‘z ichiga olgan bo‘lib, shundan 3tasi bo‘lim yuzasidan takrorlash darslaridir<sup>4</sup>.

№	Mavzu nomi	Muallifi	Janri
	Yerga chizilgan rasm.		Rivoyat

<sup>4</sup>Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi 4-qism: 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.82 b.



	Sohibqiron bobom mening.	Miltiqboy Xonnazarov	She'r
	Sirli sandiq.	G'iyos Kornilov	Asar
	0 'tmishdan ertaklar.	Abdulla Qahhor	Hikoya
	Bastakor Yunus bobo	Abdulla Po'latov	She'r
	Bo'lim yuzasidan takrorlash.		
	Kasblar gulshodasi.		Matn
	Cho'rtanbaliq va mushuk.	Ivan Krilov	Masai
	Mard o'g'lonlar bo'lamiz.	Kavsar Turdiyeva	She'r
	Maydondagi bolalar.	Mahmud Murodov	Hikoya
	Zardo'z.	Ravshan Isoqov	She'r
	Bo'lim yuzasidan takrorlash.		
	Dunyo mo'jizalari		Matn
	Tabiat mo'jizalari.		Matn
	Mo'jiza.	Umida Abduazimova	She'r
	Dengiz suvi nega sho'r?		Ertak
	Telebola. I qism.	Xudoyberdi To'xtaboyev	Hikoya
	Telebola. II-III qismlar.	Xudoyberdi To'xtaboyev	Hikoya
	Bo'lim yuzasidan takrorlash.		

### **Xulosa.**

Darslikda Vatan va ona tabiat, ota-onaga, do'st-birodarlarga mehr-muruvvat, inson fe'lida uchrab turadigan ba'zi qusurlar va ularning oqibatlarini tasvirlangan ibratga to'la hikoyalar, rivoyatlar, maqol, matal, topishmoq va tez aytishlar o'rin olgan. Ushbu darslikda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi (PIRLS) tadqiqotining ochiq manbalaridan ham foydalanilgan.



O'qish kitobidagi barcha mavzular nihoyasida o'rganilgan asar yuzasidan besh yoki oltitagacha savollar, topshiriqlar, maqol va hikmatli so'zlar yoki topishmoq va tez aytishlar o'rin olgan.

Har bir bo'lim so'ngida bo'lim yuzasidan takrorlash darslari berilgan bo'lib, ularda savollar, topshiriqlar, krossvordlar, boshqotirmalar, rebuslar, o'yin-musoboqalar berilgan.

Boshlang'ich ta'lim jarayonidagi o'qish darslari adabiyot fanining debochasi sifatida faqatgina ta'lim berishi emas, balki bolalarda axloqiy tarbiya va ma'naviy yetuklikni shakllantirishning eng asosiy vositasi hamdir. Shuning uchun o'qish darslarida ta'lim va tarbiya berishga alohida alohida e'tibor qaratish uning samaradorligi garovidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. M.E.Toirova. O'qish savodxonligi 1-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent:Novda Edutainment, 2023
2. U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. O'qish savodxonligi 2-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent:Novda Edutainment, 2023
3. U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O'qish savodxonligi 3-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent:Novda Edutainment, 2023
4. U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O'qish savodxonligi 4-qism: 4-sinf uchun darslik. Toshkent:Novda Edutainment, 2023